Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UNDAIRISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrux Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abdusalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	



O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Email: muhlisaibragimova 4@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida vazirlik va idoralarda faoliyat yuritayotgan ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashning tashkiliy-huquqiy asoslari, amaldagi mezonlari, 2025-yil yakunlari hamda ularning samaradorligini oshirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibining normativ asoslari, baholash savolnomasining tuzilishi, yo'nalishlar bo'yicha vazn koeffitsiyentlari, 11 ta vazirlik va idora misolida aniqlangan natijalar hamda tizimli kamchiliklar o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, ichki audit xizmatlari sifat darajasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida xavf tahliliga asoslangan yillik rejalashtirish, audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi, chora-tadbirlar rejasining bajarilishi, ichki hujjatlarning sifatli ishlab chiqilishi va xodimlar malakasi ajralib turadi. 2025-yilda baholashdan o'tgan tashkilotlarning 18 foizi "yuqori", 55 foizi "o'rta", 27 foizi esa "past" darajada baholangan. Maqolada ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida riskga asoslangan auditni chuqurlashtirish, "Davlat audit" dasturiy kompleksidan foydalanishni kengaytirish, ichki audit xizmatlarining tashkiliy mustaqilligini kuchaytirish, ichki hujjatlarni namunaviy nizomga muvofiqlashtirish, masofaviy auditni rivojlantirish va auditorlar malakasini oshirish bo'yicha xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, baholash, samaradorlik, davlat moliyaviy nazorati, xavf tahlili, audit sifati, ichki nazorat, raqamli audit, budjet intizomi, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This article analyzes the organizational and legal framework for assessing the activities of internal audit services operating in ministries and departments of the Republic of Uzbekistan, current criteria, results for 2025, and areas for improving their effectiveness. The study examined the normative basis of the procedure for assessing the activities of internal audit services, the structure of the assessment questionnaire, weighting coefficients by area, results identified in the case of 11 ministries and departments, and systemic shortcomings. According to the results of the analysis, the factors that most strongly influence the quality of internal audit services are annual planning based on risk analysis, conducting audit activities in accordance with the legislation, implementation of the action plan, high-quality development of internal documents, and staff qualifications. In 2025, 18 percent of organizations that passed the assessment were rated "high," 55 percent were rated "medium," and 27 percent were rated "low." The article presents conclusions on the following priority areas for improving the activities of internal audit services: deepening risk-based auditing, expanding the use of the "State Audit" software complex, strengthening the organizational independence of internal audit services, harmonizing internal documents with the model charter, developing remote auditing, and improving the skills of auditors.

Key words: internal audit, assessment, efficiency, state financial control, risk analysis, audit quality, internal control, digital audit, budget discipline, management efficiency.

Аннотация. В данной статье анализируется организационно-правовая база оценки деятельности служб внутреннего аудита, действующих в министерствах и ведомствах Республики Узбекистан, действующие критерии, результаты за 2025 год и области повышения их эффективности. В исследовании рассмотрены нормативная база процедуры оценки деятельности служб внутреннего аудита, структура оценочной анкеты, весовые коэффициенты по областям, результаты, выявленные на примере 11 министерств и ведомств, а также системные недостатки. По результатам анализа, факторами, наиболее сильно влияющими на качество услуг внутреннего аудита, являются годовое планирование на основе анализа рисков, проведение аудиторской деятельности в соответствии с законодательством, реализация плана действий, качественная разработка внутренней документации и квалификация персонала. В 2025 году 18% организаций, прошедших оценку, получили оценку



«высокая», 55% — «средняя», и 27% — «низкая». В статье представлены выводы по следующим приоритетным направлениям совершенствования деятельности служб внутреннего аудита: углубление аудита на основе оценки рисков, расширение использования программно-технического комплекса «Государственный аудит», укрепление организационной независимости служб внутреннего аудита, гармонизация внутренних документов с типовым уставом, развитие дистанционного аудита и повышение квалификации аудиторов.

Ключевые слова: внутренний аудит, оценка, эффективность, государственный финансовый контроль, анализ рисков, качество аудита, внутренний контроль, цифровой аудит, бюджетная дисциплина, эффективность управления.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar jarayonida vazirlik va idoralardagi ichki audit xizmatlarining institutsional o'rni sezilarli darajada ortib bormoqda. Chunki ichki audit faqat moliyaviy buzilishlarni aniqlash bilan cheklanmay, balki budjet intizomini mustahkamlash, boshqaruvdagi tizimli xatarlarni kamaytirish, nazoratning profilaktik mexanizmlarini kuchaytirish va rahbariyat uchun tahliliy asos yaratib berish vazifasini ham bajaradi.

Davlat sektorida ichki auditning zamonaviy mazmuni uning nazoratdan ko'ra kengroq tushuncha ekanini ko'rsatadi. U boshqaruv samaradorligini baholaydi, ichki nazorat muhitini tahlil qiladi, resurslardan foydalanish natijadorligini o'rganadi hamda kamchiliklarning takrorlanishini oldini olishga xizmat qiladi. Shu sababli ichki audit xizmatlari faoliyatini tizimli baholab borish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda baholash natijalari asosida takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish alohida dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekistonda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashning me'yoriy-huquqiy bazasi izchil shakllantirilgan. Xususan, Prezidentning PF-6300-son Farmoni, PQ-128-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-son qarori, ichki audit milliy standartlari hamda keyingi yillardagi normativ yangilanishlar ichki audit xizmatlarini tashkil etish, ularga qo'yiladigan talablar va baholash mezonlarini belgilab berdi. 2025-yilda ushbu baholash tizimining yanada takomillashuvi kuzatilib, savolnoma yo'nalishlari va baholash indikatorlari amaliyotdan kelib chiqib boyitildi [1].

Maqolaning maqsadi vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tizimini ilmiy jihatdan tahlil qilish, 2025-yil natijalari asosida mavjud muammolarni aniqlash va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit xizmatlari samaradorligini baholash masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xalqaro amaliyotda Ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan Professional amaliyotlar xalqaro tizimi ichki auditning asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ichki audit xizmatlari faoliyati mustaqillik, obyektivlik, malaka, riskga asoslangan rejalashtirish, audit dalillarining yetariligi, hisobotlarning sifat darajasi va tavsiyalar ijrosi kabi mezonlar asosida baholanadi.

Jahon banki va PEFA metodologiyasi davlat sektorida ichki audit xizmatlari samaradorligini baholashning yana bir muhim ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi. Mazkur yondashuvda ichki audit yillik rejalarining bajarilishi, audit tadbirlarining qamrovi, natijalarning rasmiylashtirilishi va tavsiyalar amaliyotga qanchalik tatbiq etilgani asosiy indikatorlar sifatida ko'riladi. O'zbekistonning 2024-yilda PEFA mezonlari bo'yicha "B+" darajada baholanishi ichki audit tizimi xalqaro mezonlar bilan uyg'unlashib borayotganini ko'rsatadi [3].

IIA (Institute of Internal Auditors) standartlariga ko'ra, ichki audit xizmatlari samaradorligi auditlar soni bilan emas, balki ularning boshqaruv qarorlariga ta'siri, moliyaviy intizomni mustahkamlashdagi roli hamda audit tavsiyalarining amaliy ijrosi darajasi bilan baholanadi. Bu yondashuv ichki auditni tashkilot boshqaruvini takomillashtiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida talqin etadi.

Milliy tadqiqotlarda ichki audit xizmatlarining rivojlanishi davlat moliyaviy nazoratining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. Tadqiqotchilar ichki audit tizimining samaradorligi tashkilot rahbariyatiga bo'ysunish tizimi, ichki audit xizmati mustaqilligi, auditorlarning kasbiy tayyorgarligi, audit natijalarini raqamli platformalarda yuritish va monitoring mexanizmlarining ishlash darajasi bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadilar. Shu bois, ichki audit xizmatlarini baholash mezonlarini xalqaro standartlar va milliy amaliyot uyg'unligida shakllantirish ilmiy-amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik umumlashtirish, mantiqiy tahlil va guruhlash usullariga asoslandi. Tadqiqot manbasi sifatida ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashga oid



normativ-huquqiy hujjatlar, 2025-yil baholash natijalari, vazirlik va idoralar kesimidagi foiz ko'rsatkichlari, yo'nalishlar bo'yicha tahliliy materiallar, chora-tadbirlar rejalari va amaliy xulosalar olindi.

Baholash 7 ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, ularning har biriga alohida vazn koeffitsiyenti biriktirilgan. Aynan vaznlar tizimi ichki audit xizmatlari faoliyatining qaysi jihatlarini eng muhim deb e'tirof etilayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash bo'yicha namunaviy savollar yo'nalishlari va ularga belgilangan vaznlar [4]

T/r	Baholash savollari yo'nalishi	Vazn
1	Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta'minlanishi	0,10
2	Ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi	0,10
3	Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi	0,20
4	Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi	0,20
5	Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi	0,20
6	Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi hamda faoliyati samaradorligining baholanishi	0,15
7	Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar	0,05

Jadvaldan ko'rinadiki, eng yuqori vazn yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi, audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va chora-tadbirlar rejasining bajarilishiga berilgan. Bu ichki audit xizmatlari faoliyatining real natijadorligi aynan shu uch yo'nalishda jamlanganini anglatadi.

Tadqiqot doirasida 2025-yilda baholashdan o'tgan 11 ta vazirlik va idora natijalari tahlil qilindi. Ular yuqori, o'rta va past darajali guruhlariga ajratildi hamda yo'nalishlar kesimida o'zaro qiyoslandi.


TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yil baholash natijalarining umumiy tavsifi

2025-yilda 5 turdagi xavf omillarining tahlili asosida ichki audit xizmatlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarning 22 foizini tashkil etuvchi 11 ta tashkilot baholandi. Baholash natijalariga ko'ra 2 ta tashkilot "yuqori", 6 ta tashkilot "o'rta" va 3 ta tashkilot "past" darajada baholangan. Ushbu ko'rsatkich ichki audit tizimi shakllanayotgan va takomillashayotgan bo'lsa-da, natijalar bo'yicha tashkilotlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. 2025-yilda vazirlik va idoralar kesimida ichki audit xizmatlari faoliyati sifat darajasi [5]

T/r	Vazirlik va idora nomi	Sifat darajasi (%)	Baho
1	Adliya vazirligi	92,4	Yuqori
2	Qishloq xo'jaligi vazirligi	91,6	Yuqori
3	"O'zarxiv" agentligi	88,7	O'rta
4	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi	86,1	O'rta
5	Fanlar akademiyasi	83,8	O'rta
6	Madaniyat vazirligi	81,3	O'rta
7	Yoshlar ishlari agentligi	75,7	O'rta
8	Kadastr agentligi	72,3	O'rta
9	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	66,7	Past
10	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi	64,3	Past
11	Transport vazirligi	62,2	Past



1-rasm 2025-yilda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari tuzilmasi

Mazkur taqsimot o'rta darajali natijalar ustunligini ko'rsatadi. Bu esa ichki audit xizmatlari tizimi shakllangan bo'lsa-da, u hali to'liq barqaror va yuqori samaradorlik darajasiga chiqmaganini anglatadi.

Yo'nalishlar bo'yicha asosiy tendensiyalar

Baholash materiallari shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik tashkilotlarda ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi nisbatan yuqori baholangan. Bu auditor kadrlar salohiyati va ichki audit institutining tashkiliy shakllanishi bosqichma-bosqich mustahkamlanayotganini bildiradi [6].

Shu bilan birga, quyidagi yo'nalishlar tizimning eng muammoli bo'g'inlari sifatida namoyon bo'ldi:

- yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi;
- chora-tadbirlar rejasining bajarilishi;
- ichki auditga oid ichki hujjatlarning sifatli ishlab chiqilishi;
- audit natijalarini "Davlat auditi" dasturiy kompleksiga kiritish;
- audit tavsiyalari bo'yicha monitoring yuritish.

Bu holat ichki audit xizmatlari faoliyatida tashkiliy mavjudlik bilan amaliy natijadorlik o'rtasida tafovut borligini ko'rsatadi.

Past baholangan tashkilotlar tahlili

Transport, Ekologiya hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklarining ichki audit faoliyati tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu tizimlarda samaradorlikni oshirish uchun keng ko'lamli zaxiralar mavjud. Xususan, audit obektlarini qamrab olishda xavf-xatarlarni tahlil qilish metodologiyasini yanada takomillashtirish, rejalashtirish jarayonlarining tizimlilikini ta'minlash hamda audit natijalarini "Davlat auditi" dasturiga kiritishda monitoring mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Shuningdek, ichki idoraviy hujjatlarni amaldagi namunaviy talablarga to'liq moslashtirish choralari ko'rilishi lozim (3-jadval).

3-jadval Past baholangan vazirliklarda aniqlangan asosiy kamchiliklar [7]

Tashkilot	Asosiy muammolar
Transport vazirligi	ichki nizom namunaviy nizomga mos emas; xavf tahlili to'liq emas; chora-tadbirlar rejasini tuzilmagan; yillik reja ijrosi 25%
Ekologiya vazirligi	yillik reja xavf tahlilisiz tuzilgan; audit natijalari "Davlat auditi"ga kiritilmagan; monitoring yo'lga qo'yilmagan; yillik reja ijrosi 22%
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	ichki hujjatlar moslashtirilmagan; yuqori xavfli obyektlar to'liq qamrab olinmagan; chora-tadbirlar monitoringi sust; "O'zASBO" tizimidan foydalanish cheklangan

Jadvaldagi ma'lumotlar past natijalarning ildiz sabablari tashkiliy, metodik va texnologik omillar bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.


O'rta darajada baholangan tashkilotlar tahlili

"O'zarxiv" agentligi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Kadastr agentligida natijalar "o'rta" baholangan. Mazkur guruhdagi tashkilotlar ichki



audit xizmatlari faoliyatida barqaror tizim shakllana boshlaganini namoyon etsa-da, ular hali yuqori darajaga xos boshqaruv, rejalashtirish va monitoring sifatiga to'liq erishmagan.

Masalan, Kadastr agentligida ichki audit xizmati ichki hujjatlarining qabul qilinishi 50 foizni, chora-tadbirlar rejasining bajarilishi 44 foizni tashkil etgan. Yoshlar ishlari agentligida ichki audit hujjatlari 50 foiz, audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiqligi 68 foiz, yillik rejani bajarish ko'rsatkichi esa 38 foiz bo'lgan. Fanlar akademiyasida xavf tahliliga asoslangan rejalashtirish 56 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich past baholangan tashkilotlarga nisbatan yuqoriroq bo'lgan (2-rasm).



2-rasm 2024–2025-yillarda ayrim tashkilotlarda ichki audit xizmatlari sifat darajasining o'sishi [8]

Bu ijobiy dinamika ichki audit xizmatlariga uslubiy yordam ko'rsatilgani, ichki hujjatlar qayta tasdiqlangani, audit tadbirlarini rasmiylashtirish sifati yaxshilangani va bo'ysunuv tizimida aniqlik kiritilgani bilan izohlanadi.

Yuqori darajada baholangan tashkilotlar tajribasi

Adliya vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi "yuqori" darajada baholangan. Ushbu tashkilotlarda ichki audit tizimining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat:

- ichki audit xizmatining aniq bo'ysunuv va mustaqillik asosida tashkil etilgani;
- ichki hujjatlarning to'liq moslashtirilgani;
- audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilgani;
- xodimlar malakasining yuqori darajada ekani;
- audit tadbirlari natijalari bo'yicha chora-tadbirlar tizimining ishlab turgani.

Biroq yuqori natija ko'rsatgan tashkilotlarda ham rejadani tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq bo'lgan holatlar kuzatilgan. Bu esa ichki audit tizimida rejalashtirish va risklarni qamrab olish masalasini yanada takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashda faqat formal mavjudlikni emas, balki haqiqiy natijadorlikni o'lchash muhimligini ko'rsatadi. Hozirgi tizimdagi 7 ta yo'nalish ichki audit faoliyatining asosiy jihatlarini qamrab oladi. Biroq kelgusida ichki auditning boshqaruvga real ta'siri, tavsiyalar asosida kamchiliklarning qayta takrorlanish darajasi, profilaktik audit samaradorligi va raqamli integratsiya darajasi kabi omillarni ham yanada aniqroq o'lchash zarur.

Shu nuqtayi nazardan, ichki audit xizmatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, ichki audit rejalashtirishini to'liq xavf tahliliga asoslash lozim. Bu audit resurslarini eng muhim va xavfli yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi;

ikkinchidan, audit natijalari bo'yicha chora-tadbirlar rejalari belgilangan tartibda tuzilishi, ularning bajarilishi yuzasidan muntazam monitoring yuritilishi zarur;

uchinchidan, ichki audit xizmatlari faoliyatini raqamlashtirish, "Davlat audit" va boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish audit natijalarining ochiqligi va tezkorligini oshiradi;



to'rtinchidan, ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomlar va lavozim yo'riqnomalarini muntazam ravishda amaldagi namunaviy hujjatlarga moslashtirib borish talab etiladi;

beshinchidan, ichki auditorlarning malaka darajasini milliy va xalqaro standartlar asosida uzluksiz oshirish ichki audit sifatini barqaror ravishda yuqori bosqichga olib chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tizimi amaliy jihatdan muhim natijalar berayotganini ko'rsatdi. Baholash tizimining joriy etilishi ichki audit xizmatlari faoliyatida mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va ichki auditning boshqaruvdagi rolini kuchaytirish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Ichki audit xizmatlari faoliyati samaradorligini belgilovchi eng muhim omillar — xavf tahliliga asoslangan rejalashtirish, audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiqligi va chora-tadbirlar rejasining bajarilishi hisoblanadi.

2. Baholash natijalari vazirlik va idoralar o'rtasida ichki audit tizimi rivojlanishida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa ichki audit xizmatlarini boshqarishda yagona metodik yondashuvni yanada kuchaytirish zaruratini bildiradi.

3. Past va o'rta darajali natijalar, asosan, ichki hujjatlarning sifatli ishlab chiqilmagani, xavf tahlilining to'liq qamrovli emasligi, monitoring mexanizmining sustligi va axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklangani bilan izohlanadi.

4. Yuqori natijaga erishgan tashkilotlar tajribasi ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish uchun tashkiliy mustaqillik, malakali kadrlar, kuchli metodik baza va natijador monitoring tizimi hal qiluvchi omil ekanini isbotlaydi.

Shundan kelib chiqib, ichki audit xizmatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- baholash tizimini to'liq raqamlashtirish;
- KPI asosidagi ichki audit natijadorlik ko'rsatkichlarini joriy etish;
- tavsiyalar ijrosi ustidan real vaqt rejimidagi monitoringni tashkil etish;
- risklarni boshqarish tizimi va ichki auditni institutsional jihatdan bog'lash;
- masofaviy audit va analitik audit texnologiyalarini kengaytirish.

Umuman olganda, ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash va takomillashtirish O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish, budjet mablag'laridan oqilona foydalanish va boshqaruv sifatini yaxshilashning muhim instrumenti bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-128-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risida"gi nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi "Budjet mablag'lari ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 2-dekabrda 198-sonli buyrug'i, ro'yxat raqami 3583, "Ichki audit xodimlari faoliyati samaradorligini baholash to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 3-oktabrdagi 52-sonli buyrug'i, ro'yxat raqami 3394, "Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash bo'yicha 2025-yil hisobot materiallari.
8. The Institute of Internal Auditors. International Professional Practices Framework (IPPF). Altamonte Springs.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>